



YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI: YUKSALISH VA DEMOKRATIK TARAQQIYOT POYDEVORI

Xoliqulov Elyorjon

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi tahlil qilingan bo'lib, uning milliy qadriyatlar, insonparvar demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati qurilishi, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Maqolada shuningdek, Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi ahamiyati, inson qadr-qimmati va intellektual huquqlarini himoya qilish masalalari, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari harakatlar yoritilgan. Yangi Konstitutsiyada belgilangan asosiy tamoyillar va ularning mamlakatimiz kelajagiga ta'siri chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Yangi Konstitutsiya, milliy qadriyatlar, inson qadr-qimmati, intellektual huquq, ijtimoiy davlat, demokratik taraqqiyot, adolatli jamiyat, milliy yuksalish, huquqiy islohotlar, konstitutsiyaviy referendum, xalq irodasi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi sahifasini ochib beruvchi tarixiy hujjat hisoblanadi. Uning g'oyasi, maqsadi va ruhi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik an'analari hamda sharqona davlatni idora etish tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan. Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" konsepsiyasining huquqiy poydevorini shakllantirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi". Bu so'zlar yangi Konstitutsiyaning xalq bilan bamaslahat yaratilganining dalilidir.

ASOSIY QISM

Yangilangan Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekistonning yagona xalqi: inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilgan. Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatini namoyon etgan holda, inson, uning





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish maqsadi belgilangan.

Yangi Konstitutsiyada inson qadr-qimmatini va huquqlariga alohida e'tibor qaratilgan. 31-moddada shaxsning intellektual huquqiy daxlsizligi kafolatlangan bo'lib, bu bugungi raqamli texnologiyalar davrida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yangilangan qomusimizda o'qituvchilarning huquqlari alohida belgilab qo'yilgan, ularning qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati himoya qilinishi ta'minlangan.

Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn aytganidek: "Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat'iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo'shishni o'z burchi deb bilsagina himoya qilinadi". Bu fikr yangi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etilishida fuqarolarning faol ishtirokining qanchalik muhimligini ko'rsatib beradi.

Yangi Konstitutsiyada davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanish prinsipi alohida ta'kidlangan. Bu milliy qadriyatlarimizni saqlab qolgan holda zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishimizning asosidir.

Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida: "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur... Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin..." deya ta'kidlagan edi. Bu fikr yangi Konstitutsiyada ham o'z aksini topgan bo'lib, davlat ishlarini xalq bilan kengashib, maslahatli olib borish tamoyili ustuvor etib belgilangan.

Yangi Konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri – uning ijtimoiy yo'naltirilganligidir. Unda ijtimoiy adolat va birdamlik prinsipi, fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish majburiyati, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan. Bu esa "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" konsepsiyasining huquqiy asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning yangi tahririda mamlakatimizning tabiiy boyliklarini ko'paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlash masalalariga alohida urg'u berilgan. Bu esa barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga muvofiq keladi.

Yangilangan Konstitutsiyada xalqaro huquqning umumiy e'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlari hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilish tamoyillari belgilangan. Bu esa mamlakatimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritishiga huquqiy asos yaratadi.

Yangi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va burchlari aniq belgilab qo'yilgan. Shu jumladan, fuqarolarning saylov huquqi, so'z erkinligi, fikr bildirishga va ijodiy faoliyatga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'lgan huquqlari, mulk huquqi kengaytirilgan. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, madaniy merosni asrab-avaylash kabi burchlar ham belgilangan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi milliy yuksalish va demokratik taraqqiyotning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Unda inson qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida belgilangan, intellektual huquqlar himoyasi ta'minlangan, o'qituvchilar va boshqa kasb egalari huquqlari mustahkamlangan.

Yangi Konstitutsiya muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek: "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishning asosiy kaliti bo'lib xizmat qiladi. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyoda Yangi O'zbekistonning adolatli, demokratik va rivojlangan davlat sifatida o'z o'rnini egallashida yangi Konstitutsiya mustahkam huquqiy poydevor vazifasini o'taydi.

"Kengashli to'y tarqamas" degan xalq maqoliga amal qilgan holda, yurtimizda Uchinchi Renessans davrining poydevorini qurish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakat qilish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va innovatsion taraqqiyotni ta'minlashda yangi Konstitutsiyamiz ishonchli huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi. Har bir yurtdoshimiz Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun faol harakat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2023
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Safarov A., Axadov B. Yangi Konstitutsiya ishonchli kelajak garovi. -Toshkent, 2023.

